



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

BUXORO – 2026

ELEKTRON KUTUBXONA TUSHUNCHASI VA UNING AXBOROT TIZIMIDAGI O'RNI

Rajabova Gulchexra Salomovna, Buxoro davlat pedagogika instituti

Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi, Matematika va informatika yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada elektron kutubxona tushunchasi, zamonaviylashib borayotgan axborot tizimidagi o'rni yoritib beriladi. Elektron kutubxonaning axborot tizimlari bilan integratsiyalash jarayoni hamda ularning ta'lim olishda, ilm-fan va tadqiqot faoliyatlaridagi ahamiyati haqida ko'rib chiqiladi. Maqolada axborotga masofadan turib murojaat qilish, ma'lumotlar bazalaridan samarali foydalanish hamda foydalanuvchi ehtiyojlariga mos xizmatlar ko'rsatish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot natijalari elektron kutubxonalar axborot jamiyatini rivojlantirishda muhim bir infratuzilma elementi ekanini ko'rsatib o'tadi.

Kalit so'zlar: elektron kutubxona, axborot tizimlari, integratsiya raqamli resurslar, ma'lumotlar bazasi, axborot texnologiyalari, ta'lim va ilm-fan, axborot jamiyati.

Kirish: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatdagi axborot turlaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi Bugungi kunda ma'lumotlar oqimining kundun-kunga ortib borish jarayoni kerakli axborotlarni qidirishni qiyinlashtirmoqda. Ushbu jarayon elektron kutubxonalaridagi muhim axborot resursi sifatida shakllanib, bilim va ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash hamda foydalanuvchilarga tezkor yetkazib berishda muhim o'rin egallamoqda va bu an'anaviy kutubxonalardan farqli ravishda, elektron kutubxonalar axborotga masofadan turib murojaat qilish, katta hajmdagi raqamli resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu rivojlanish bizga jamiyatni elektrondashib borishiga yo'l ochib bermoqda.

Bugungi kunda elektron kutubxonalarimiz ta'lim sifatini ilm-fan va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi zamonaviy axborot tizimlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda deya olamiz. Ularning axborot tizimlari bilan integratsiyalashuvi foydalanuvchilarga qulay, tezkor hamda ishonchli xizmatlar ko'rsatishni ta'minlay oladi. Shu sababli elektron kutubxona tushunchasi, uning axborot tizimidagi o'rni hamda jamiyat rivojidagi ahamiyatini o'rganish dolzarblashib borayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Elektron kutubxona bugungi kunda bunday aytamani hayotimizda tez-tez ishlatyabmiz. Elektron kutubxona deganda ko'z oldimizga kompyuter, mobil aloqa vositalari, turli xil elektron darsliklar, audio kitoblar, video darsliklar keladi. Bu internetning ajoyib imkoniyatlaridan biridir. Xo'sh biz bugungi kunda endi bizga kerakli ma'lumotlarni kutubxona tokchalarida turgan kitoblarni varoqlab emas, balki oson va tez tarzda internet tarmog'ida elektrton tarzda mavjud bo'lgan ma'lumotlardan, kitoblardan olishimiz hamda foydalanishimiz mumkin. Bugungi kunda ta'limda samarali foyda berib kelayotgan ushbu elektrton kutubxona tizimi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 – yilning 7 – iyun kuni “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot – kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida” gi qarorida elektron kutubxonani rivojlantirish haqida satrlari ham mavjud.

Elektron kutubxona — bu axborot resurslarini raqamli shaklda jamlash, saqlash, qayta ishlash va foydalanuvchilarga elektron aloqa vositalari orqali taqdim etishga mo'ljallangan axborot tizimi hisoblanadi. U matn, grafik, audio va video ko'rinishidagi turli xil hujjatlarni o'z ichiga oladi va ularni tizimli ravishda boshqarish imkoniyatini beradi. Elektron kutubxonalar an'anaviy kutubxonalarga nisbatan axborotga tezkor murojaat qila olish, joy va vaqt bilan bog'liq cheklovlar yo'qligi hamda resurslardan bir vaqtning o'zida ko'p foydalanuvchilar foydalana olish kabi bir qancha afzalliklarga ega.

Zamonaviy axborot tizimlarida elektron kutubxona tushunchasi muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi. Ular mazkur ma'lumotlar bazalari, turli ta'lim platformalari va ilmiy axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat olib boradi. Bunday integratsiyalash jarayonining natijasida axborot almashinuvi borgan sari samarali bo'lib, foydalanuvchilar uchun qulay va yagona axborot muhiti yaratiladi. Elektron kataloglar, qidiruv tizimlari axborotni tez va aniq topishga xizmat qiladi hamda bu jarayon biz uchun juda ham samaralidir. Elektron kutubxonalar ta'lim sohasida talaba va o'qituvchilarni zarur o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi deya olamiz. Ilm-fan va tadqiqot faoliyatida esa ilmiy maqolalar, tizeslar dissertatsiyalar va statistik ma'lumotlarga ochiq va tezkor kirish imkoniyatini beradi biz bundan juda keng tarmoqda foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shuningdek, biz foydalanuvchilar ehtiyojlarga mos ravishta interaktiv xizmatlar, masofaviy foydalanish va individual axborot xizmatlari elektron kutubxonalarining

samaradorligini yanada oshiradi. Keling biz elektron kutubxonadan foydalanmoqchimiz. Biz bu orqali dunyoning istalgan nuqtasidagi elektron kutubxonasidan foydalana olamiz. Hamda bizga buning qulay tomoni ushbu ma'lumotni nusxalab ko'chirib olishimiz mumkin. Bizga bu elektron kutubxonadan foydalanish uchun kompyuter, modem va internet tarmog'i bo'lishining o'zi yetarli hisoblanadi.

Elektron kutubxonaning ananaviy kutubxonadan afzalliklari hamda qulayliklari :

- Joy tejalishi, yani kitoblarni saqlash uchun maxsus joyga zaruriyat yo'qligi;
 - Ma'lumotlarni saqlab olish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi;
 - Qidiruv tizimi mavjudligi;
 - Ma'lumotlar hajmining cheklanmaganligi;
 - Ma'lumotlarni audio, video va kompyuter grafikasi yordamida samarali va yaxshiroq aks ettirish imkoniyatlarining borligi;
 - Vaqt tejalishi hamda istalgan vaqtda foydalanish mumkinligi;
 - Qo'shimcha xitmatlarning mavjudligi;
- bularning barchasi elektron kutubxonaning axborot tizimidagi o'rni hisoblanadi.

Bugungi kunda zamon bilan hamnafas bo'lgan yoshlar raqamli texnologiyalar muhitida shakllanib, axborotni asosan elektron va onlayn manbalar yordamida qabul qilmoqda bu esa yoshlarning zamon bilan hamnafas ekanidan yana bir dalolat. Shu nuqtai nazardan, elektron kutubxonalar yosh avlodning bilim olish jarayonida eng qulay va samarali axborot manbalaridan biridir. Mobil qurilmalar, planshetlar va kompyuterlar orqali elektron kutubxona resurslaridan foydalanish imkoniyati yoshlarning mustaqil ta'lim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda bu yanada rivojlanishimizga asos bo'ladi.

Elektron kutubxonalarni ijtimoiy tarmoqlar, masofaviy ta'lim platformalari hamda boshqa raqamli axborot tizimlari bilan integratsiyalash yoshlar uchun yagona, qulay va interaktiv axborot muhitini yarata oladi. Bunday integratsiya natijasida o'quv materiallari, ilmiy uslubiy manbalar hamda multimedia resurslaridan tezkor foydalanish imkoniyati yanada kengayadi. Shuningdek, zamonaviy qidiruv tizimlari, sun'iy intellektga asoslangan tavsiya mexanizmlari va shaxsiy kabinetlar yosh foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos axborot xizmatlarini taqdim etadi ehtiyoj organsari yangi imkoniyatlar yo'li ochiladi. Natijada elektron kutubxonalar raqamli axborot makonida yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish, axborot madaniyatini shakllantirish hamda innovatsion fikrlashni qo'llab-quvvatlashda muhim integratsiyalashgan platforma sifatida xizmat qiladi platformalardan keng tarmoqda foydalaniladi. Elektron kutubxonalar yoshlarning raqamli savodxonligini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborotni tanlash, tahlil qilish va undan unimli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish orqali bugungi yoshlar ishonchli va sifatli manbalarni aniqlashni o'rganadilar, ajoyib ko'nikmaga ega bo'ladilar. Bu esa noto'g'ri yoki ishonchsiz axborotlar ta'sirini kamaytiradi hamda nafaqat axborot madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, elektron kutubxonalar ochiq ta'lim resurslari (Open Educational Resources), elektron darsliklar va xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan holda yoshlar uchun global bilim maydoniga kira olish imkoniyati yaratiladi. Bu holat talabalar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlab, ularning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshiradi bu yerda ikki tom ham manfaatdor bo'ladi. Bundan tashqari, elektron kutubxonalar innovatsion texnologiyalar, jumladan bulutli hisoblash, sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (Big Data) bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda va har tomonlama takomillashmoqda. Bu texnologiyalar asosida yaratilgan xizmatlar yosh foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan axborot, tezkor qidiruv va interaktiv o'rganish muhitini taqdim etadigani yoshlar bundan keng tarmoqda foydalanishadi. Shu orqali elektron kutubxonalar zamonaviy yoshlarning ehtiyojlariga moslashgan, integratsiyalashgan raqamli axborot platformasi sifatida o'z ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Elektron kutubxonalar axborot tizimlarida nafaqat raqamli resurslarni saqlash joyi, balki ulardan foydalanishni osonlashtiruvchi tizim sifatida ishlaydi. Ular foydalanuvchilarga tezkor qidiruv, turli formatdagi materiallarga kirish va ma'lumotlarni tartib bilan taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, elektron kutubxonalar boshqa axborot tizimlari bilan bog'lanib, ilmiy jurnallar, ma'lumotlar bazalari va ta'lim platformalari bilan integratsiyalashadi. Bu integratsiya foydalanuvchilarga bir platformada ko'p turdagi resurslardan foydalanish imkonini beradi va axborot olish jarayonini soddalashtiradi. Elektron kutubxonalarda saqlanadigan materiallar muntazam yangilanadi, bu esa foydalanuvchilarga doimiy ravishda yangi va ishonchli ma'lumotlar bilan ishlash imkonini yaratadi. Shu

bilan birga, elektron kutubxonalar axborot tizimlarida ma'lumotlarni boshqarish, tarqatish va ulardan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim vosita sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Mazkur maqolada elektron kutubxonaning tushunchasi, integratsiyalashuvi uning zamonaviy axborot tizimidagi o'rni va funksiyalari ko'rib chiqildi. Ushbu maqolada yosh avlod imkoniyatlari ko'rsatilib o'tildi. Elektron kutubxonalar nafaqat raqamli resurslarni saqlash va tartibga solish vositasi, balki foydalanuvchilarga ma'lumotlarni tezkor va qulay yetkazish va samarali foydalanish imkonini beruvchi tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning axborot tizimlari bilan integratsiyalashuv jarayoni ta'lim, ilm-fan va tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashda strategik rol o'ynaydi hamda bu katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, elektron kutubxonalar foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlariga moslashgan xizmatlar ko'rsatib, zamonaviy jamiyatda bilim olish va ma'lumotlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Natijada elektron kutubxonalar axborot jamiyatining rivojlanishida, ilmiy va ta'lim sohalarida muhim infratuzilma elementi sifatida xizmat qiladi. Yurtimiz yoshlarini tez va keng tarmoqda zamon bilan hamnafas bo'lib borishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахборот ресурслари ва технологиялари. – Т.: “Fan”, 2018.
2. Қариков Ш.Э. Электрон kutubxonalar: nazariya va amaliyot. – Т.: “Ilm ziyo”, 2020.
3. Rahmonov A. Raqamli axborot tizimlari va kutubxonalar. – Самарқанд: “Universitet nashriyoti”, 2019.
4. U.F. Karimov, M.A. Rahmatullayev Elektron kutubxona yaratish texnologiyasi va resurslardan foydalanish
5. Karimova M. Elektron kutubxonalar va axborot resurslari. – Toshkent: Fan, 2021.
6. Rajabova G.S. The practice of using digital technologies in education. // “European Journal of Economics, Finance and Business Development”. ISSN (E): 2938-3633. Volume 2, Issue 6, June – 2024, -B.24-28
7. Rajabova G.S. Internetda talabalar uchun masofaviy ta'limni tashkil qilish masalalari.// “Talqin va tadqiqotlar”. – Buxoro, 2024. - № 12(49). B. 61-66

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Ruzieva Narqiza Omonjonovna , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirxanovna Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulyatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inklyuziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129